

VII. ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidandir.

2024-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 917 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 103 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 814 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so‘m
(2024-yil yanvar-mart oylari)

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 009,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,7 % ga o‘ydi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 351,3 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 102,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 658,4 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 110,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 774,7 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 118,2 %) tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	5 009,7	109,7
Andijon sh.	1 457,9	109,2
Xonobod sh.	35,6	110,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko‘l	323,4	110,3
Andijon	426,7	109,9
Baliqchi	413,3	111,2
Bo‘ston	79,6	100,5
Buloqboshi	110,8	107,4
Jalaquduq	112,6	109,2
Izboskan	155,1	111,7
Ulug‘nor	83,3	107,7
Qo‘rg‘ontepa	210,9	126,4
Asaka	494,3	113,6
Marhamat	199,3	110,3
Shahrixon	447,1	107,2
Paxtaobod	192,8	103,8
Xo‘jaobod	267,0	103,8

2024-yilning yanvar-mart oylarida 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,2 %), Xonobod shahri (10,3 %), Baliqchi (11,2 %), Izboskan (11,47 %), Asaka (13,6 %), va Qo‘rg‘ontepa (26,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 4 658,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 10,4 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga o'sdi va 351,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,0 % ulushiga to'g'ri keldi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,0 %), Qo'rg'ontepa (98,9 %), Shahrixon (98,2 %), Xo'jaobod (98,1 %) va Marhamat (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (17,1 %), Jalaquduq (9,1 %), Andijon (6,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Andijon viloyati	1 472,7	107,4
Andijon shahar	3 022,8	106,2
Xonobod shahar	775,7	108,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	1 680,9	108,6
Andijon	1 487,7	107,6
Baliqchi	1 911,7	108,9
Bo'ston	1 021,1	98,4
Buloqboshi	722,7	105,2
Jalaquduq	565,3	107,3
Izboskan	606,2	109,5
Ulug'nor	1 303,7	106,4
Qo'rg'ontepa	913,9	124,1
Asaka	1 389,7	111,3
Marhamat	1 067,6	108,1
Shahrixon	1 374,7	104,8
Paxtaobod	921,6	101,6
Xo'jaobod	2 219,7	101,3


2024-yilning yanvar-mart oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 472,7 ming so'mni (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,4 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (3 022,8 ming so'm), Xo'jaobod (2 219,7 ming so'm) va Oltinko'l (1 680,9 ming so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi*

Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 774,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 118,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 299,3 mlrd. so'mni (113,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 475,4 mlrd. so'mni tashkil etdi (139,0 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-mart), foizda



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari












**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo
aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari**

	Jami, mlrd. so‘m	2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	774,7	118,2
Andijon shahar	144,0	96,7
Xonobod shahar	2,4	2,2 m.
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	15,2	122,7
Andijon	17,7	77,6
Baliqchi	47,8	131,5
Bo‘ston	4,5	72,8
Buloqboishi	23,2	104,5
Jalaquduq	20,7	127,3
Izboskan	14,6	2,9 m.
Ulug‘nor	24,1	99,7
Qo‘rg‘ontepa	59,7	3,3 m.
Asaka	105,7	143,3
Marhamat	51,7	147,4
Shahrixon	158,1	115,8
Paxtaobod	58,4	89,8
Xo‘jaobod	26,9	85,6

2024-yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 299,3 mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida 475,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: Dehqon bozori

2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 299,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (117,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p style="text-align: center;">117,4 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">39,2 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p style="text-align: center;">75,2 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">25,1 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va)</p> <p style="text-align: center;">34,8 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">11,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p style="text-align: center;">9,4 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">3,1 %</p>	<p>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p style="text-align: center;">12,2 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">4,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p style="text-align: center;">10,1 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">3,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p style="text-align: center;">12,1 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">4,0 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p style="text-align: center;">8,0 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">2,7 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</p> <p style="text-align: center;">1,4 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">0,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p style="text-align: center;">8,1 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">2,7 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p style="text-align: center;">2,9 mlrd. so'm</p>  <p style="text-align: right;">1,0 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p style="text-align: center;">7,8 mlrd. so'm</p> <p style="text-align: right;">2,6 %</p>

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:
Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m**

2024-yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 475,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 395,5 mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – 73,2 mlrd. so‘mni, otlar – 4,1 mlrd. so‘mni, parrandalar va quyonlar – 2,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI

2024-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 205 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 204 tani tashkil qildi.


	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	96,5	107,7
Andijon shahar	41,9	104,0
Xonobod shahar	1,2	111,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'1	4,9	112,3
Andijon	7,7	112,2
Baliqchi	2,0	113,2
Bo'ston	2,1	97,0
Buloqboshi	0,8	112,5
Jalaquduq	2,0	111,6
Izboskan	2,8	112,7
Ulug'nor	1,1	110,9
Qo'rg'ontepa	4,4	111,2
Asaka	4,3	112,6
Marhamat	2,7	100,3
Shahrixon	12,9	112,0
Paxtaobod	3,3	111,0
Xo'jaobod	2,4	112,7

2024-yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 96,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 898,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,1 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 426,0 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 30,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 472,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 112,0 %) tashkil qildi.

**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari
ulgurji va chakana savdo aylanmasi
os'ish sur'ati, foizda**



AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI



Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	898,1	100,0
Andijon shahar	607,2	67,6
Xonobod shahar	0,1	-
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	38,1	4,2
Andijon	35,7	4,0
Baliqchi	1,0	0,1
Bo'ston	0,1	-
Buloqboshi	0,2	-
Jalaquduq	1,0	0,1
Izboskan	0,4	-
Ulug'nor	0,1	-
Qo'rg'ontepa	11,5	1,3
Asaka	96,5	10,7
Marhamat	3,7	0,4
Shahrixon	3,6	0,4
Paxtaobod	0,8	0,1
Xo'jaobod	98,1	10,9

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (607,2 mlrd. so'm), Asaka (96,5 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (98,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 441,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga o'sdi.

Hududlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



2024-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 859 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 833 tani tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 373,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,2 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

	Jami <i>mlrd. so'm</i>	2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, <i>foizda</i>
Andijon viloyati	1 441,7	112,6
Andijon shahar	559,0	110,9
Xonobod shahar	7,5	125,4
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	69,6	118,4
Andijon	117,7	115,4
Baliqchi	96,3	111,6
Bo'ston	35,7	112,0
Buloqboshi	31,1	112,2
Jalaquduq	14,6	75,9
Izboskan	27,8	114,2
Ulug'nor	15,7	113,8
Qo'rg'ontepa	35,3	115,6
Asaka	45,9	113,8
Marhamat	36,1	147,1
Shahrixon	305,3	112,0
Paxtaobod	25,3	112,0
Xo'jaobod	18,7	115,2

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Xonobod shahri (85,0 m.), Andijon (1,9 m.), Marhamat (2,5 m.) va Xo'jaobod (2,9 m.) tumanlarida kuzatildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joylarida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – tovar muomalasi doirasida bo'lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilishi – tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat.